



Daryo oqimining hosil bo'lishi

**Abdunazarov Lutfillo Mamanovich¹,
Axmedova Farzonabegim Saydullo qizi²**

¹Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsent,

²Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6585206>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022

Ma'qullandi: 14- may 2022

Chop etildi: 26- may 2022

KALIT SO'ZLAR

daryo, daryo manbayi,
daryo mansabi, daryo
havzasi, suv yig'ish havzasi,
daryo oqimi, yer yuzasi
oqimi, iqlimiy omil

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada daryo va uning oqimini hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida yoritilgan bo'lib, daryo oqimining hosil bo'lishiga daryo havzasi geologik tuzilishi, relyef, iqlimiy omillar, tuproq va o'simlik qoplami, ko'llar, botqoqliklar, muzliklar va antropogen omillar ta'siri haqida so'z boradi.

Atmosfera yog'inlari bilan to'yinadigan va o'zan deb ataluvchi chuqurlikda oqadigan doimiy suv oqimiga daryo deb ataladi.

Daryolarni suv oladigan joyini manbayi deb ataladi. Daryolar buloqlar, sizot suvlari, botqoqliklar, ko'llar, doimiy qor va muzliklardan boshlanadi. Daryolarning boshlanish joyi uning suv rejimi xususiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, daryolar ko'l va muzliklardan boshlansa sersuv, sizot suvlari va botqoqliklardan boshlansa kamsuv bo'ladi.

Daryoning suv quyadigan joyi mansabi deb ataladi. Daryolar suvlarini okeanlar, dengizlar, ko'l va daryolarga borib quyadi.

Daryoning suv yig'adigan maydoni daryo havzasi deb ataladi. Daryo havzasi-nam saqlaydigan jinslarni o'z ichiga olgan yer yuzasining bir qismi, undan suv alohida daryo yoki daryo sistemasiga oqadi. Daryo havzasini ko'pincha daryoning suv yig'ish havzasi deyiladi. Har bir daryo havzasi yer usti va yer osti suv to'plash havzalarini o'z

ichiga oladi. Yer usti suvlari yer yuzasining bir qismini egallab, undan suv daryo sistemasiga yoki aniq bir daryoga oqadi. Yer osti suvlari g'ovak yotqiziqlar qatlamini hosil qilib, undan suv daryo tarmoqdariga boradi. Daryoning boshlanish joyidan quyar joyiga tomon to'xtovsiz harakati daryo oqimi deyiladi. Asosiy qism. Yomg'ir yog'ishi, tog'lardagi qor va muzliklarning erishi natijasida hosil bo'lgan suvlarning bir qismi yerga shimiladi, bir qismi bug'lanadi, faqat qolgan qismigina oqim hosil bo'lishida ishtirok etadi. Yer yuzasidagi oqimni daryo havzalarida paydo bo'lishi, uning jadalligi, yer ostiga shimilishi hamda bug'lanishdan katta bo'lgandagina yuza oqimi hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan oqim yer yuzasi oqimi deyiladi. Avval oqim juda kichik jilg'alar ko'rinishida hosil bo'ladi, jilg'alar o'zaro qo'shib, doimiy oqar suvlarni hosil qiladi. Ular qo'shib soylarni, soylar birlashishidan esa daryo oqimi hosil bo'ladi. Daryo oqimiga yer osti suvlari ham kelib qo'shiladi.



Shunday qilib, daryo oqimi yer yuzasi va yer osti suvlarining yig'indisidan iborat. Ular asosan daryo havzalaridan oqadi.

Daryo oqimining hosil bo'lishiga havzaning geografik o'rni, geologik tuzilishi va relyefi, iqlimi, tuproq va o'simlik qoplami, gidrografik sharoiti (muzlik, ko'l, botqoqlik) kabi tabiiy geografik omillar ta'siretadi. Oqim hosil bo'lish jarayoniga insonning daryo havzasidagi xo'jalik faoliyati ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Daryo havzasi geologik tuzilishining ta'siri.

Daryolar to'yinishida ishtirok etadigan yer osti suvlarining to'planish va sarflanish sharoiti daryo havzasining geologik tuzilishi bilan uzviy bog'liq. Tog' jinslarining litologik tarkibi, suv o'tkazmas qatlamlarning joylashish chuqurligi oqim hosil bo'lishiga, uning miqdoriga va yil davomidagi taqsimlanishiga ta'siretadi.

Suvni yaxshi o'tkazadigan tog' jinslaridan tashkil topgan qatlam ko'p miqdordagi suvni o'ziga shimib oladi va nam to'plagich vazifasini o'tab, daryolarning yil davomida yer osti suvlari bilan bir tekis to'yinishini ta'minlaydi.

Relyefning ta'siri.

Daryo oqimini hosil bo'lishiga havzaning relyefi bevosita va bilvosita ta'siretadi. Relyefning oqimga bevosita ta'siri havzaning nishabligi orqali ifodalanadi. Agar havzaning nishabligi katta bo'lsa, oqim jadal sur'atda hosil bo'lib, uning daryo o'zaniga oqib kelish vaqti qisqaradi. Shuningdek, yer ostiga shimilish va bug'lanishga ham kam miqdordagi suv sarf bo'ladi.

Havza relyefining oqim hosil bo'lishiga bilvosita ta'siri juda kattadir. Bu ta'sir daryo havzasi suv balansining asosiy elementlari bo'lgan yog'in-sochin, bug'lanish, yer ostiga

shimilish va havzada to'planadigan suv miqdori orqali seziladi.

Tog'li hududlarda daryo havzasining suv balansi elementlari balandlik bo'yicha keskin o'zgaradi. Yillik yog'in miqdori ma'lum balandlikkacha ortib boradi, shundan so'ng balandlik ortishi bilan yog'in miqdori kamaya boradi. Yog'in miqdoriga tog' yonbag'irlarining nam havo oqimi yo'nalishiga nisbatan joylashishi katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Xisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy yonbag'irlariga yiliga 1500-2000 mm yog'in yog'sa, Pomir tog'larining ichki qismida bu qiymat atigi 400-600 mm ni tashkil etadi. Balandlikning ortishi yog'in turiga ham ta'sir etadi. Ma'lumki, balandlikka mos ravishda yog'inning umumiy miqdoriga nisbatan qorning hissasi ortib boradi. Bu esa, o'z navbatida oqim koeffitsiyentining o'sishiga olib keladi. Iqlimiy omillar ta'siri.

Iqlimiy omillarga atmosfera yog'inlari, bug'lanish, havo harorati, havo namligi, shamol kabilar omillar kiradi.

Iqlimning daryo oqimiga ta'sir etuvchi asosiy elementlari atmosfera yog'inlari va bug'lanishdir.

Daryo oqimi miqdoriga yog'inning oz va ko'p bo'lishi va uning yil davomida taqsimlanish xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yog'inning ko'p qismi yilning sovuq davrlarida yog'sa, o'sha vaqtda uning ancha qismi oqim sifatida daryoga kelib qo'shiladi. Agar yog'inning asosiy qismi yilning issiq fasllarida yog'sa, u vaqtda yog'inning katta qismi bug'lanishga va yer ostiga shimilishga sarf bo'ladi.

Oqimga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi ikkinchi iqlimiy omil - bu bug'lanishdir. Bug'lanish havo harorati va yog'in miqdoriga bog'liq. Masalan, O'rta Osiyoning cho'l rayonlarida havo harorati nihoyatda



yuqori, bug'lanish uchun sharoit yetarli, lekin bug'lanish miqdori juda kam, chunki juda oz miqdorda yog'in yog'adi.

Tuproq va o'simlik qoplamining ta'siri.

Har bir daryo havzasi yuzasining ma'lum qismi tuproq bilan qoplangan bo'ladi. Tuproq qoplamining oqim hosil bo'lishiga ta'siri, uning suv shimish va shimilgan suvni o'zida ushlab tura olish imkoniyati bilan ifodalanadi. Uning shu xususiyatiga bog'liq holda yer osti va yuza oqimlar miqdori ham turlicha bo'ladi. Tuproq zarrachalarining o'lchamlari qancha katta bo'lsa, u shuncha ko'p miqdordagi suvni shima oladi. Misol uchun, qumli tuproq loy tuproqqa nisbatan 5-10 marta ko'p suvni shima oladi.

O'simlik qoplamining daryo oqimi hosil bo'lishiga ta'siri quyidagilarda aks etadi:

1) o'simlik qoplami atmosfera yog'inlarining bir qismini o'zida ushlab qoladi. Natijada yog'inning yanada ko'proq qismi bug'lanadi.

2) o'simlik qoplami ildizlari orqali doimiy ravishda tuproqdan ma'lum miqdordagi namlikni olib, tanasi orqali bug'latib turadi;

3) o'simlik qoplami o'z tanasi bilan tuproq yuzasini qoplaydi, uning isib ketishiga yo'l qo'ymaydi va natijada, bug'lanish miqdorini kamaytiradi;

4) o'simlik qoplami yer yuzasi g'adir-budurligini orttiradi, yuzadagi suvning oqish tezligini kamaytiradi, natijada ko'p miqdordagi suvning yer ostiga shimiladi;

5) o'simlik qoplami yer sirtidagi qorning erishini sekinlashtiradi natijada yer ostiga shimilishni kuchaytiradi va hokazo .

Demak, o'simlik qoplamining oqim hosil bo'lishiga ta'siri yog'in, bug'lanish, yer ostiga shimilish miqdorlarining o'zgarishida ifodaladi. O'simlik qoplami ba'zi hollarda oqimning ko'payishiga

sababchi bo'lsa, ayrim hollarda esa buning aksidir.

Ko'llar, botqoqliklar va muzliklarning ta'siri.

Daryo oqimi ko'llar va botqoqliklar ta'sirida tabiiy ravishda boshqariladi. Ularning daryo oqimiga ta'siri, ayniqsa, shimoliy hududlarda sezilarlidir. Daryo havzasida muzliklarning mavjudligi oqimning yil davomida taqsimlanishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Masalan, O'rta Osiyo tog'laridagi muzliklar hisobiga to'yinadigan daryolar oqimining asosiy qismi iyul-sentyabr oylariga to'g'ri keladi. Shu davrdagi issiqlik balansi esa u yildan bu yilga kam o'zgaradi, bunga proporsional ravishda oqim miqdori ham yildan-yilga kam o'zgaradi. Antropogen omillar ta'siri.

Inson xo'jalik faoliyatining daryo oqimiga ta'siri juda qadim davrdan boshlangan, lekin bu ta'sir avvallari keng miqyosda kuzatilmagani uchun uncha sezilarli bo'lmagan. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab insonning tabiatga ta'siri kuchaya bordi. Jumladan, inson xo'jalik faoliyatining daryo oqimiga ta'siri quyidagi ko'rinishlarda o'z aksini topdi:

- suv omborlari, suv elektr stansiyalari (GES) qurish;

- daryo oqimini havzalararo qayta taqsimlash;

- sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish;

- daryo havzasidagi botqoqlik yerlarni quritish;

- daryolar suv to'playdigan yirik maydonlarda agrotexnika tadbirlarini (o'rmon-melioratsiya ishlari) o'tkazish;

- yirik shaharlar va aholi punktlarini suv bilan ta'minlash;

- yirik sanoat korxonalarini (qog'oz ishlab chiqaruvchi, kimyo, metallurgiya,



to'qimachilik) suv bilan ta'minlash va hokazo .

Xulosa. Daryo oqimining hosil bo'lishiga havzaning geografik o'rni, geologik tuzilishi va relyefi, iqlimi, tuproq va o'simlik qoplami, gidrografik sharoiti kabi tabiiy geografik omillar va antropogen omillar ta'siretadi. Yuqorida sanab o'tilgan

antropogen omillar daryo oqimining miqdoriga ham, sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ana shu ta'sirni har tomonlama o'rganish, uni miqdoriy jihatdan baholash va bu ta'sir natijasida kelib chiqadigan salbiy oqibatlarning oldini olish yoki kamaytirish asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy yer bilimi. P.Baratov, N.B.Sultanova Toshkent 2018
2. Gidrologiyaga kirish. F.Xikmatov, D.P.Aytbayev, B.Y.Adenbayev, R.T.Pirnazarov Toshkent-2017
3. Gidrologiya, gidrometriya va oqim hajmini rostlash. S.Karimov, A.Akbarov, U.Jonqobilov Toshkent-2004
4. Gidrologiya asoslari. A.R.Rasulov, F.X.Hikmatov, D.Aytboyev Toshkent-2003
5. Gidrologiya va gidrometriya. B.K.Soliyev, S.A.Azimboyev Toshkent-2006
6. <https://uz.m.wikipedia.org>
7. <https://hozir.org>
8. <https://milliycha.uz>
9. <https://fayllar.org>
10. <https://staff.tiame.uz>
11. Umumiy gidrologiya va iqlimshunoslik G'.X.Yunusov, R.R.Ziyayev Toshkent-2018
12. <https://hozir.org/oquv-materiallari-ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirlig.html?page=4>
13. <http://www.hozir.org/maruza-umumiy-gidrologiya-va-iqlimshunoslik-faniga-kirish-reja.html?page=42>
14. <http://www.hozir.org/gidrologiya-va-iqlimshunoslik.html?page=7>